

**JALAQUDUQ TUMANIDA SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGINING
RIVOJLANISHI, BUNING NATIJASIDA ATROF-MUHITNING
IFLOSLANISHI VA INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRI**

Umarov Bekzod Baxtiyorjon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Dehqonchilik va o‘rmon melioratsiyasi” kafedrası assistenti

Ne‘matillayeva Odinaxon Muhidilla qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jalaquduq tumanining hozirgi rivojlanib borishi va buning natijasida ishlab chiqarishni atrof-muhitga, inson salomatligiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligi uning kelajakda qanday muammolarni keltirib chiqarishi haqida qimmatli ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Jalaquduq tumani, atmosferaning ifloslanishi, aholi salomatligi, ichimlik suvi, iqlim o‘zgarishi, vegetatsiya davri, yashil makon.

Аннотация: В данной статье представлена ценная научная информация о современном развитии Джалал-Абадской области и о том, как оно влияет на производственную среду и здоровье человека, и какие проблемы вызовет в будущем.

Ключевые слова: Джалал-Абадская область, загрязнение атмосферного воздуха, здоровье населения, питьевая вода, изменение климата, вегетационный период, зеленые насаждения.

Annotation: This article provides valuable scientific information about the current development of Jalal-Abad district and how it affects the environment and human health, and what problems it will cause in the future.

Keywords: Jalal-Abad district, air pollution, public health, drinking water, climate change, vegetation period, green space.

Andijon viloyatidagi Jalaquduq tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Jalaquduq tumani viloyatning Andijon, Xo‘jaobod, Qo‘rg‘ontepa tumanlari bilan hamda Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyati tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,37 ming km² tashkil etadi.

Jalaquduq tumani viloyatning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Yer usti tuzilishi past tekislik, qir va adirlardan iborat. Tumanning iqlim sharoiti keskin kontinentaldir. Iyul oyining o‘rtacha harorati 27C, yanvar oyida -3C, vegetatsiya davri 160-180 kun. Yiliga o‘rtacha 200-250 mm yog‘in yog‘adi. Shahrixonsoy, Savay kanallari va Qoradaryo oqib o‘tadi. Andijonsoy ham oqib o‘tadi. Tuman yerlarida och tusli va o‘tloq bo‘z tuproq uchraydi. Adirlarda efemer o‘simliklar, ekin ekilmaydigan yerlarda shuvoq va sho‘ralar o‘sadi.

Jalaquduq tumanida respublikamizda bo‘lganidek, shunday vaziyat ro‘y bermoqdaki, Tumanda sanoatning rivojlanib borishi va qishloq xo‘jaligini tubdan islox qilinib texnika omilining jadallashib borishi natijasida, aholi yashash punktlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchilari o‘sha hududlarning ekologik holatini sezilarli yomonlashtirmoqda, ekotizimning barcha komponentlari kimyoviy tarkibining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bularning barchasi aholi salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Atmosfera ifloslanishining aholining kasallanishi bilan miqdoriy bog‘liqlikning borligi aniqlandi. Respublikamizdagi qator shaharlarda, jumladan, Andijon shahrida ham atmosferaning ifloslanishi va shunga mos ravishda aholining kasallanishining nisbatan ko‘pligi o‘tkir muammolardan hisoblanmoqda.

Jalaquduq tumani bo‘yicha o‘tkir yuqumli ichak kasalliklari har yuz mingta aholiga nisbatan taxlil qilinganda, intensiv ko‘rsatkich 32.5, Yorqishloq QFY o‘ramida aholi o‘rtasida o‘tkir yuqumli ichak kasalligi har yuz mingta aholiga nisbatan olingan intensiv 25.4, virusli gepatit kasalligi tuman bo‘yicha har yuz mingta aholiga nisbatan olinganda 50.1, Yorqishloq QFYda virusli gepatit kasalligi intensiv ko‘rsatkichi 38.1 tashkil etib, o‘tgan 2017-yilga nisbatan 2018-yilda ortib ketgan. Tuman bo‘yicha endokrin kasalligi har mingta aholiga nisbatini olib, taxlil qilinganda umumiy kasallanish intensiv ko‘rsatkichi 11.5, birlamchi kasallanish

intensiv ko‘rsatkichi 4.9, Yorqishloq QFY da har mingta aholi soniga nisbatan umumiy kasallanish 22.2, birlamchi kasallanish intensiv ko‘rsatkichi 9.6 tashkil qiladi. Jalaquduq tuman DSENM mutaxassisleri tomonidan nazorat ishlari davom ettirilmoqda. Aniqlangan holatlar bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumotlar taqdim qilinadi.

Tuman aholisini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanishini 82% bo‘lsada, ayrim aholi yashash punktlarining toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanishini 65-70% dan yuqori emas. Ayniqsa, Oxunboboev Sh. Janubiy Olamushuk SHFY, Teshik-Tosh QFY, Oyim QFY, Yorqishloq QFY, Beshtol QFY, Jalaquduq QFY, Abdullabiy va boshqa qishloq fuqorolar yig‘inlari aholisini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanishi talab darajasida emas.

Tumanda shu yilning o‘tgan 7 oyi mobaynida Oxunboboev shahar, Janubiy Olamushuk ShFY, Qoratal QFY, Guliston QFY, Jalaquduq QFY hududlarida o‘tgan yilga nisbatan virusli gepatit kasalligi 2-3 marotaba ortganligi kuzatilmoqda.

- aholi yashash punktlarida qattiq va suyuq chiqindilarni to‘plash joylarini sanitariya-gigiyena me‘yorlari asosida tashkil etish;
- xazonrezgidan to‘planadigan barglarni o‘z vaqtida tashib ketilishini ta‘minlash
- yoshlarda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish, ekologik tushuncha va tasavvurlarni paydo qilish va rivojlantirishni eng avvalo ta‘lim tizimining eng quyi bo‘g‘inlaridan, ya‘ni maktabgacha ta‘lim muassasalaridan boshlash zarur.
- muqobil energiya manbalaridan foydalanishni ko‘rib chiqish tuproqqa zararni kamaytirishning eng samarali usullardan biridir.
- atrof-muhitga chiqadigan avtotransport vositalarining chiqishini oldini olish uchun velosiped, piyoda yoki jamoat transport kabi boshqa transport vositalardan foydalanish.
- uyda quyosh panellarini o‘rnatish ko‘pchilik uchun arzon bo‘lishi mumkin, ammo hatto quyosh energiyasi bilan ishlaydigan suv isitgichlaridan foydalanish atrof-muhitga katta yordam beradi.
- daraxtlar kabi yirik o‘simliklar shaharlarda shovqin bilan ifloslanishdan saqlanish uchun eng yaxshi yechimlardan biri.

- quvurlar orqali o‘tadigan barcha suvlarni tozalash kerak. Odamlar yuvinayotganda yoki tishlarini yuvayotganda kranlarni ishdan bo‘shatish odat tusiga kirgan bo‘lsada ushbu tadbirlarni bajarayotganda suv oqimini to‘xtatish nafaqat suvni tejashga yordam beradi balki maxsus tozalash kerak bo‘lgan suv miqdorini kamaytiradi.
- yashil makon bo‘yicha har bir fuqaro o‘z hissasini qo‘shish
- har bir fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Ergashev A. Umumiy ekologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
3. To‘xtaev A. S., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent: O‘qituvchi, 1964.
4. M.Nazarov., M.T.Abdullayeva “Farg‘ona vodiysida introduksiya qilingan o‘simliklar klassifikatsiyasi” Toshkent. “O‘qituvchi” 2005-y
5. Norbekov O. Tabiat unsurlarining tasnifi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali №10 Toshkent 2009-y 7 bet.
6. 20. Idrisov X.A, Usmonaliyev X.I., Abdug‘opporova D.A, Yusupova M.N, Murodov A.A Tipik bo‘z tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus piper*) navlarini tadqiq etish. “Research and education” scientific journal volume 1, issue 2, iyun, 2022, 157-162, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6636337>
7. Idrisov X.A, Ahmadjonov O., Xoshimov N., Abdullayev A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus piper*) navlarining simbiotik faoliyatiga ekish muddati va me‘yoring ta‘sirini o‘rganish. “SCIENCE AND INNOVATION” xalqaro ilmiy jurnali, 2022 yil, 1-son, ISSN: 2181-3337, Toshkent. 616-624 betlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6529068>
8. Idrisov X.A, Baxramov R.M.. Soyaning yangi navlarini yaratish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar. “SCIENCE AND INNOVATION” xalqaro ilmiy

- jurnali, 2022 yil, 1-son, ISSN: 2181-3337, Toshkent.776-786 betlar.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6535751>
9. Idrisov X.A, Atabaeva X.N., Soliyev A. O‘tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus piper*) ning o‘shishi, rivojlanishi va don hosildorligi. “Research and education” scientific journal volume 1, issue 2, may, 2022, 373-382. https://t.me/Researchedu_journal/1171.
 10. Idrisov X.A, Xaliljonov D. Dukkakli ekin-mosh (*Phaseolus aureus Piper*.)- morfologiyasi. “International conference on learning and teaching-9” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-june.2022 y, 139-143 betlar. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/06/CONFERENCE-2022-9-full-2.pdf>
 11. Idrisov X.A, Xaliljonov D Osiyo loviyasi-mosh (*Phaseolus aureus Piper*.)- biologik xususiyatlari. “International conference on learning and teaching-9” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-june.2022 y, 144-148 betlar. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/06/CONFERENCE-2022-9-full-2.pdf>.
 12. Idrisov X.A, Xaliljonov D Mosh qimmatbaho dukkakli ekin. “International conference on learning and teaching-9” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-june.2022 y, 149-153 betlar. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/06/CONFERENCE-2022-9-full-2.pdf>
 13. Ubaydullayev Madamin Mo‘minovich, & Ne‘matova Feruzaxon Jamolxon Qizi. (2021). The Importance Of Planting And Processing Of Medium-Field Cotton Varieties Between Cotton Rows In Fergana Region . The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 3(09), 26–29. <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume03Issue09-05>
 14. Ubaydullayev, M. M. (2021). G ‘o ‘zada defoliatsiya o ‘tkazishning maqbul me‘yor va muddatlari. Monografiya.-Corresponding standards and terms of

defoliation of cotton. Monograph.-. Соответствующие нормы и сроки дефолиации хлопка. Монография. Zenodo.

15. Ubaydullayev Madaminjon Mo‘minjonovich, & Babayeva Malikakhon Nabijon qizi. (2022). Effectiveness Of Defoliants. Eurasian Research Bulletin, 8, 9–12. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1415>
16. Ubaydullaev, M. M. U., Askarov, K. K., & Mirzaikromov, M. A. U. Effectiveness of new defoliants. Theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(12), 789-792.
17. M.M.Ubaydullayev, Ne‘matova F.J, & Marufjonov A. (2021). DETERMINATION OF EFFICIENCY OF DEFOLIATION IN MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 95–98. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/453>
18. Ubaydullaev M.M., & Komilov J.N. (2022). EFFECT OF DEFOLIANTS FOR MEDIUM FIBER COTTON. International Journal of Advance Scientific Research, 2(05), 1–5. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-05-01>
19. Ubaydullaev M.M., & Mahmutaliyev I.V. (2022). EFFECTIVENESS OF FOREIGN AND LOCAL DEFOLIANTS ON THE OPENING OF CUPS. International Journal of Advance Scientific Research, 2(05), 6–12. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-05-02>
20. Ubaydullaev M.M., & Makhmudova G.O. (2022). MEDIUM FIBER S-8290 AND S-6775 COTTON AGROTECHNICS OF SOWING VARIETIES. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(05), 49–54. <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-05-12>